

RAQOBAT, MONOPOLIYAGA QARSHI BOSHQARUV VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Karimov Shamsiddin Akram o'g'li

Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiy muhitida raqobat, monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni rivojlantirishning mohiyati tahlil qilingan. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti rivojlanishi uchun raqobat shakllanishi kerak bo'lgan sohalardagi korxonalar saqlanib qolinishi, korxonalar uchun ularning bozor sharoitlariga tarkiban moslashuviga imkon beradigan xo'jalik yuritish mexanizmini ishlab chiqarish muhim o'rin egallaydi. Bu mexanizm davlat korxonalarini iqtisodiy jihatdan erkin bo'lishini, ularning faoliyati tijoratlashgan bo'lishini nazarda tutadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida raqobatning asosiy usuli narx bo'lganligi sababli, narxlarni erkin qo'yib yuborish raqobatli muhitni vujudga keltirishning asosiy talabi va tahlili ko'rib chiqiladi.

***Kalit so'zlar:** Bozor munosabatlari, iqtisodiyotning sohalari, raqobat, monopoliya, qarshi boshqaruv, raqobatni rivojlantirish, tadbirkorlik.*

ABSTRACT

This article analyzes the nature of competition, anti-monopoly management and development of competition in the economic environment of our country today. For the development of the modern market economy, it is important to maintain the enterprises in the fields where competition should be formed, and for the enterprises to adapt to the market conditions. This mechanism assumes that state enterprises will be economically free, and their activities will be commercialized. Since the main method of competition in the period of transition to a market economy is price, the free release of prices is considered as the main requirement and analysis of creating a competitive environment.

***Key words:** Market relations, sectors of the economy, competition, monopoly, counter-management, development of competition, entrepreneurship.*

KIRISH

Bugungi kunda jahonda bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotning sohalari rivojlanishini ta'minlash va uning istiqbolini ilmiy asosda oldindan bilish muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda jahonda inson kapitali rivojlanishi jamiyat rivojlanishi ijtimoiy taraqqiyotning muhim muammolarini hal etishda asosiy o'rin egallaydi. Taraqqiyot darajasini uning muayyan mezonlari, indikatorlari yordamida

baholashni talab etuvchi ko'p qirrali jarayonga aylandi. asta-sekin, lekin tubdan o'zgarib boshladi. Jamiyatda inson taraqqiyotining muhim mezonini, uning umr ko'rish davomiyligi, savodxonligi va resurslardan foydalanish imkonini ifodalaydigan - Insonni taraqqiyoti indeksidir. Har qanday mamlakatning farovonlik darajasi faqatgina daromadlar miqdoriga emas, balki ushbu daromadlardan qay darajada foydalanishga ham bog'liq. Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida iqtisodiyotning real sektori jadal surhatlarda rivojlanib bormoqda. Tadbirkorlik faoliyati iqtisodiyoti tarkibi – bu milliy iqtisodiyotdagi tovar va xizmatlar ko'rsatuvchi turli tarmoq va sohalar yig'indisidan iborat bo'lib, ular o'zaro aloqada va bog'liqlikda iqtisodiy faoliyatda bo'ladilar. Iqtisodiyotning tadbirkorlik sektorlari mutanosibligini ta'minlashda davlat monetar siyosatining amal qilishi va uning samaradorligini oshirishning nazariy jihatlarini yoritish hamda O'zbekistonda iqtisodiyotning tadbirkorlik sektorlari davlat ko'magini berish siyosatining ahamiyatini yanada oshirish borasida ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqilgan.

Mamlakatimiz va xalqaro moliyaviy institutlar bilan birgalikda davlatlarning iqtisodiyoti masalalari, muammolari bilan bog'liq ko'plab chet el olimlari tomonidan berilgan V.R. Bank, O.I. Volkov, Ye.I. Shoxina va boshqalar. SHuningdek o'zbek olimlari asarlaridan monopoliyaga qarshi boshqaruv, raqobatbardoshlikni shakllantirish va XMI faoliyatiga tegishli F.M.Mullajonov, O.Yu.Rashidov, SH.Z.Abdullaeva, T.S.Rasulov, R.R.Tojiev, N.X.Xaydarov I.I.Alimov, I.Butikov, I.R.Toymuhamedov, U.SH.Do'sqobilov U.Burxonov, T.Rasulov, N.Jumaev, SH.Rajabbaev, J.Ataniyazov, Ye.Alimardonov, A.Bedrintsev, A.Bekmuradov, A.Rasulev, S.Berjanov, S.Kasimov, M.Mirasaatov, N.Siradjiddinov, R.SHadiev, T.Rasulov, R.Yuldasheva, A.V.Vaxabov, D.G.G'ozibekov, N.Karimovlar va S.G'ulomov, A.Abdug'aniev, A.O'lmasov, M.SHarifxo'jaev, A.Vahobov, SH.SHodmonov, U.G'afurov, SH.Yo'ldoshev, X.Barakaev, A.Usmonov, A.O'rinov, O.Hamroev, A.Mamatov va E.SHodmonovlar yurtimizdagi iqtisodiy holatni tahlil qilishar ekan, o'zlarining ilmiy tavsiyalarini ishlab chiqishgan. Shu nuqtai nazardan, bugungi kundagi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda hisobga olinishi zarur bo'lgan xorijiy tamoyil va tavsiyalarni ko'rib chiqamiz. Zero, mamlakatning taraqqiy etishi nafaqat biz yosh avlodga, balki kelajak avlod uchun ham juda muhimdir. Iqtisodiy islohotlarning aniq bir maqsadlarga ega bo'lishi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Iqtisodiy islohotlarning aniq siyosiy maqsadini aniqlash to'g'ri tartibga solishni yaratishda muhim birinchi qadam hisoblanadi. Qoidalar shunchaki qog'ozda qolib ketmasligi, amalga oshirilishi va ijro etilishi kerak. Muxtasar qilib aytganda, tartibga solish ko'plab manfaatdor tomonlarni o'z ichiga oladi. Aniq belgilangan iqtisodiy-

siyosiy maqsadlarini ifodalash loyihachilar va ijrochilar uchun birlashtiruvchi omil hisoblanadi. U barcha ishtirokchilar uchun umumiy maqsadni ko'rsata olishi va amaldagi tartibga solish samaradorligini o'lchash uchun foydali mezon bo'lib xizmat qilishi mumkin. Iqtisodiy maqsadlarining aniqligi, shuningdek, jamoatchilik va boshqa manfaatdor tomonlar uchun zaruriy ma'lumot manbai bo'lib xizmat qiladi. Shuni alohida ta'kidlash kerak, har bir ishlab chiqilayotgan iqtisodiy dasturlar oldingi dasturlarning xatosini qaytarmasligi muhim sanaladi. Buning uchun esa, albatta, uni yaxshilab tahlil qilish lozim.

Bundan tashqari, har qanday islohotlar mustahkam huquqiy va empirik asosga ega bo'lishi kerak. Normativ harakatlar qonun ustuvorligiga mustahkam asoslanishi kerak. Albatta, har qanday regulyator tegishli vakolatga ega bo'lishi shart. Bundan tashqari, oldingi qoidalar mavjud huquqiy majburiyatlarga aniqlik va mutanosiblik kabi keng tarqalgan qonunchilik tamoyillariga mos kelishi kerak. Qoidalar ham empirik tahlil va isbotga asoslangan bo'lishi kerak. Bu, ayniqsa, bozor tuzilishi haqidagi an'anaviy tushunchalar qo'llanilmasligi mumkin bo'lgan, zarar va foyda o'rtasidagi chegara ko'proq rivojlangan tarmoqlardagi kabi hisobga olinmagan yangi va rivojlanayotgan texnologiya sohalarida juda muhimdir. Empirik dalil har doim ma'lumotni iloji boricha obyektiv ravishda taroziga solib, har bir holatga xos faktlarga asoslanishi kerak. Yangi tartibga solish islohotlari uchun empirik asosni to'g'ri qo'ymaslik uning qonuniyligini va va'da qilingan imtiyozlarni berish qobiliyatini buzadi. Har bir islohot foydali bo'lishi lozim. Mutasaddilar har bir monopoliyani tartibga solish bo'yicha takliflarning umumiy kutilayotgan xarajatlari va foydalarini diqqat bilan ko'rib chiqishlari kerak. Iloji bo'lsa, bu taklif qilinayotgan tartibga solishning mumkin bo'lgan ta'sirini va miqdorini aniqlash uchun manfaatdor tomonlar va jamoatchilik vakillari bilan maslahatlashishni o'z ichiga olishi kerak. Bu tartibga solish sifatini va muvofiqlikni yaxshilashi mumkin, shu bilan birga yakuniy ijro xarajatlarini kamaytiradi.

Bu esa o'z navbatida, tartibga soluvchi organlarni shu sohadagi boshqa qoidalar va metodologiyalarni o'rganishga undaydi. Bunday holda, tartibga soluvchilar ulgurji yangi tartibga solishdan ko'ra, mavjud qoidalar yoki biroz o'zgartirishlar ham xuddi shunday siyosat maqsadiga arzonroq xarajat bilan erisha oladimi yoki yo'qligini o'ylab ko'rishlari uchun zamin yaratadi. Bu raqobat kontekstida, albatta, mos keladi. Shu kabi islohotlar iste'molchilar uchun sof foyda yaratish va bu tartibga solish raqobatchilarga emas, balki iqtisodiy raqobatga xizmat qiladi. Islohotlar xarajatlarni va bozor qonun-qoidalarini buzilishini minimallashtirishi kerak. Mutasaddi tashkilotlar iqtisodiyotga tushadigan xarajatlar va yukni minimallashtirish masalasini ko'rib chiqish kerak. Bu o'tgan tekshiruvdan olingan empirik ma'lumotlardan

foydalangan holda xarajatlarni ham, foydalarni ham zarur darajadagi qat'iylik bilan baholash zarurligini anglatadi. Bundan kelib chiqadiki, iqtisodiy maqsadlarda xarajatlarni tartibga solish hamda uning mukammal sxemasi bo'lishi kerak. Monopoliya va uni oldini olishga mas'ul tashkilotlar iqtisodni tartibga solishda maqsadli tarmoqlarni imkon qadar kamroq buzishga harakat qilishlari kerak. Shuningdek, innovatsiyalar har qanday sohada taraqqiyotning asosiy omili bo'lib, hukumatlar uning iqtisodiy o'sish dvigateli sifatidagi ahamiyatini tobora ko'proq e'tirof etmoqda. Masalan, raqobatni ta'minlash bo'yicha ko'plab harakatlar narxlar yoki ishlab chiqarish kabi an'anaviy ta'sirlarni hisobga olgan bir xil tahlillarda innovatsiyalarga potensial ta'sirni ko'rib chiqadi. Iste'molchilar o'z mahsulotlari, xizmatlari va umumiy tajribasini yaxshilash uchun innovatsiyalarga tayanadilar. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiyotga innovatsiyalarni olib kirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lishi lozim.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash keraki, Hozirgi davrda O'zbekistonda, agar korxonalar ishlab chiqargan muayyan mahsulotlar tovarlar bozoridagi shunday mahsulotning 35% dan ortiq bo'lsa, bu korxonalar monopolist korxonalar sifatida Davlat reyestriga kiritiladi (oziqovqat tovarlari guruhi uchun bunday mezon darajasi 20% qilib belgilangan). Respublikada monopoliyalar ro'yxatiga kirgan korxonalar (tarmoq)larning bozordagi mavqeini tartibga solishda bir qator usullardan: a) monopol mavqedagi mahsulotlarga narxlarning eng yuqori darajasini yoki rentabellik chegarasini belgilab qo'yish; b) o'z monopol mavqeini suiiste'mol qilgan monopolistik birlashmalarni bulib tashlash yoki maydalashtirish usullaridan foydalaniladi. O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquklarini himoya qilish tug'risida" (1996-yil 26-aprel) qonuni asosida g'irrom raqobatga, shu jumladan, bozorlarga belgilangan talablarga javob bermaydigan tovarlarning kirishiga yo'l qo'ymaydigan mexanizmlarni yaratishga ham alohida e'tibor berilgan. O'zbekiston Respublikasining "Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida" qonuni (1996-yil 27 dekabr) monopolistik tomonidan hukmronlik mavqeini suiiste'mol qilishning oldini olish va monopoliyadan chiqarish va sog'lom raqobatmuhitini yaratish maqsadlarini ko'zlaydi. Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida raqobat muhitini shakllantirish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas. Bu tarmoqdagi korxonalar, odatda, "tabiiy monopoliyalar" deb ataladi. O'zbekiston Respublikasining "Tabiiy monopoliyalar to'g'risida"gi qonunida (1997-yil 25 apr; yangi tahrirda 1999-yil 19 avgust) respublikada tabiiy monopoliyalarga nisbatan davlat siyosatining huquqiy asoslari belgilab berildi. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning tub mohiyatidan kelib chiqqan holda monopoliyalarga qarshi va tabiiy monopoliyalar to'g'risidagi

qonunchilik takomillashtirilib, ularning Yevropa Ittifoqi va boshqa rivojlangan qonunchilik andozalariga mos kelishi ta'minlab borilmoqda har qanday qonun yoki islohot "raqobatchilarni emas, raqobat muhitini qo'llab-quvvatlashi lozim. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirayotganda, yuqoridagi faktorlarni hisobga olish lozim. Shuningdek, xorijiy davlatlarda raqobat muhitini rivojlantirishda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni kuzatib borish, tahlil qilish va uni iqtisodiyotimizga moslashtirish orqali ham yurtimizdagi iqtisodiy muhitni yanada yaxshilash mumkin. Shuni alohida ta'kidlash joiz, bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar negizida yurtimizning yuksak taraqqiyoti va xalqimizning farovon hayoti kabi ustuvor vazifalar o'rin olgan.

REFERENCES

1. APEC & OECD, Integrated Checklist on Regulatory Reform: A Policy Instrument for Regulatory Quality, Competition Policy, and Market Openness 29 (2005), <https://www.oecd.org/regreform/34989455.pdf>.
2. Бўрихаджаева, М. С. (2023). МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТИДА АВТОМОБИЛ ТРАНСПОРТИ КОРИДОРЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1-2), 338-345.
3. М.С.Бо'рихаджаева. (2023). YANGI O'ZBEKISTONDA TA'LIM MUASSASALARIDA BERILAYOTGAN E'TIBOR VA TALABALARNI IMLIY FAOLYATGA YO'NALTIRISH . *PEDAGOGS* Jurnal, 28(1), 68–75. Retrieved from <http://pedagoglar.uz/index.php/ped/article/view/3107>
4. М.С.Бо'рихаджаева. (2023). PEDAGOGIKNING KASBIY MAHORATINI SHAKLANTIRISH INTERFAOL USULLARI . *World Scientific Research Journal*, 12(2), 128–133. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2541>
5. Бо'рихаджаева, М. С. (2023). YANGI O'ZBEKISTONDA IQTISODIY TAFAKKURNI SHAKLLANISHINING USULLARI. *World scientific research journal*, 12(2), 134-138.
6. Бо'рихаджаева, М. С. (2023). BUGUNGI KUN YOSHLARNI HAYOTIY BARDOSHLILIGI–MUAMMOLARNI YENGISH MANBAI SIFATIDA. *World scientific research journal*, 12(2), 139-143.
7. Б.М. Собитовна ДИВЕРСИФИКАЦИЯГА АСОСЛАНГАН РИСКЛАРНИ БОШҚАРИШ «Саноат иқтисодиёти ва менежменти: муаммо ва ечимлар» мавзусидаги III -халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Т.: 2023. - б. 3 (3), 690-692

8. СА Юлдашева, МС Буриходжаева, ПРОБЛЕМЫ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS 2 (2) (82-86бет) февраль 2023
9. Бурихаджаева, М. С. (2023). МАРКЕТИНГОВЫЙ ПОДХОД В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4-2), 653-661.
10. BURIKHODJAEVA MALOKHAT, YAKHSHIEV SHAKHZOD, THE ORETICAL PRINCIPLES OF FINANCIAL SECURITY FOR THE USE OF MANAGEMENT OF THE ECONOMIC SYSTEM OF UZBEKISTAN.. RESEARCH IN DEVELOPMENT: SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCES PART-1 2023 1/3 (42-45)